DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-05-03-11 Pages: 87-98

Oriental Journal of Philology



ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:
http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about



COMPARATIVE ANALYSIS OG THE POETRY OF BINT ASH-SHATI AND ZULFIYA

Mukhlisa Ziyaviddinova
Associate Professor, Candidate of Philological Sciences
Higher School of Arab Studies
Tashkent State University of Oriental Studies
Uzbekistan, Tashkent

ABOUT ARTICLE

Key words: Nile river, tazad, tashbih, isti'ara, Al-Azhar, "Risolatu-l-g‘ufron".

Received: 06.03.25
Accepted: 08.03.25
Published: 10.03.25

Abstract: This article is dedicated to the work of the renowned Egyptian poet Bint ash-Shati and the equally well-known Uzbek poet Zulfiya. Their poems were examined and analyzed. Both poets extensively used various artistic means of expression in their work, such as isti'ara (metaphor), tashbih (simile), and tazad (antithesis). The creative paths of Bint ash-Shati and Zulfiya have much in common. Both were awarded various accolades and are known beyond the borders of their respective countries.

BINT ASH-SHOTI VA ZULFIYA SHE'RIYATI QIYOSIY TAHLILI

Muxlisa Ziyaviddinova
Dosent, filologiya fanlari nomzodi
Arabshunoslik oliy maktabi
Toshkent Davlat sharqshunoslik universiteti
O‘zbekiston, Toshkent,

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Nil daryosi, tazod, tashbih, istiora, oq she'r, Al-Azhar, "Risolatu-l-g‘ufron" asari.

Annotatsiya: Ushbu maqola taniqli misrlik shoira Bint ash-Shati va kam bo‘lmagan taniqli o‘zbek shoirasi Zulfiyaning ijodiga bag‘ishlangan. Ularning she'rlari ko‘rib chiqildi va tahlil qilindi. Ikkala shoira ham o‘z ijodida turli badiiy ifoda vositalaridan, masalan: istiora, tashbih, tazod kabilardan keng foydalanganlar. Bint ash-Shati va Zulfiya shoiralarning ijodiy yo‘llari ko‘p jihatdan o‘xshashdir. Ikkalasi ham turli mukofotlar bilan taqdirlangan va o‘z mamlakatlaridan tashqarida ham tanilgan.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПОЭЗИИ БИНТ АШ-ШАТИ И ЗУЛЬФИИ

Мухлиса Зиявиддинова
Доцент, кандидат филологических наук
Высшая школа арабистики
Ташкентский государственный университет востоковедения
Узбекистан, Ташкент

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: река Нил, тазод, ташбих, истиора, белый стих, Аль-Азхар, произведение "Risolatu-l-g‘ufron".

Аннотация: Данная статья посвящена творчеству известной египетской поэтессы Бинт аш-Шати и не менее известной узбекской поэтессы Зульфии. Были рассмотрены и проанализированы их стихи. Обе поэтессы в своём творчестве широко использовали различные художественные средства выразительности, например: истиора, ташбих, тазод. Творческий путь поэтесс Бинт аш-Шати и Зульфии имеет много общего. Обе они были награждены различными наградами и известны за пределами своей страны.

Kirish. Mashhur Misr adibasi Oysha Abdurahmon Misr tarixida va arab madaniyatida alohida o‘rin tutadi. U arab adabiyotida "Bint ash-Shoti" ya'ni "Sohil qizi" taxallusi bilan ijod etgan. Adiba ushbu taxallusni Nil daryosi sohilida tug‘ilib, voyaga yetganligi uchun tanlagan. Uning hayotida Nil daryosi alohida o‘rin egallaydi, chunki hayotining eng go‘zal, beg‘ubor nafis onlari aynan shu yerda kechgan. Extimol, asalarining salmoqli qismi Nil daryosi bilan bog‘liqligi yoki ko‘pgina asarlarida uning ismi yod etilishi ham bejiz emasdir.

Bint ash-Shoti 1913 yil 6 noyabrda, Nil sohilidagi Dimyot shahrida, diniy oilada tavallud topgan. Uning otasi mashhur "Al-Azhar" dorlfununi shayxlaridan biri, onasi esa, Dimyot shahrining nufuzli oila farzandi edi.

Oysha 6 yoshdan boshlab boshlang‘ich "Kuttab" maktabiga boradi. O‘tkir zehni, kuchli xotirasi tufayli Qur'oni Karimni qisqa vaqt ichida yod oladi. Otasi bir muddat qizini uyda o‘zi o‘qitadi. 1929 yili tezkor imtixon topshirib o‘rta maktabni bitiradi. 1934 yili uyda tayyorlanib, tezkor imtixon topshirib bakalavriyat diplomini oladi. 1939yilda Qohira universiteti til va adabiyot fakultetini imtiyozli diplom bilan tugatadi. O‘qishni davom ettirib 1941 yilda Magistrlik diplomin oladi va universitetning o‘zida faoliyat ko‘rsata boshlaydi. Shu orada u ingliz, fransuz va ital'yan tillarini o‘rganadi.

Oysha universitetda ishlab yurgan paytlarida, o‘z umr yo‘ldoshini, ya'ni universitet professori, tilshunos, tarixshunos olim Amin al-Huliyni uchratadi. Ular turmush qurib, ikkita qiz va bir o‘g‘il farzandli bo‘lishadi.

1936 yildan boshlab u turmush o‘rtog‘i muharrirlik qilayotgan "Al-Ahrom" gazetasida o‘zining qiziqarli maqola va ocherklari bilan ko‘rina boshlaydi.

1944 yilda “Xatoga yo’l qo’gan ayol”, 1949 yilda “Fir’avnning qaytishi” nomli povestlari, 1953 yilda “Sohil siri”, 1958 yilda “Qishloq hikoyalari”, “Ayollar hayotidan lavhalar” deb atalgan hikoyalar to’plami nashr qilindi.

1950 yili Abu-l-Ala al-Maarriyning "Risolatu-l-g‘ufron" asari mavzusida doktorlik dissertasiyasini himoya qiladi.

1955 yilda dosent, 1963 yili professor unvonini qo‘lga kiritadi.

1963 yili zamondosh shoira Nozik al-Maloikaga bag‘ishlab "Zamonaviy arab shoirasi" nomli asarini yozadi.

U Saudiya Arabistoniga qilgan safari xotiralari haqida "Mo‘jizakor zamin" nomli asarini yaratdi.

Saodat asri ayollari haqida "Payg‘ambar onalari", "Payg‘ambar qizlari", "Payg‘ambar ayollari", "Sayyida Zaynab – Karbalo qahramoni", "Sakina Husayn qizi" nomli asarlar yozdi.

Bint ash-Shotining "Ko‘prik ustida" nomli she'riy to‘plami umr yo‘ldoshi Amin al-Xumiy xotirasiga bag‘ishlab yozilgan. Uning misralarida g‘am-alam, qayg‘u-xasrat, nadomat tuyg‘ulari ustun. Bevaqt o‘lim changaliga duchor bo‘lgan umr yo‘ldoshi adiba uchun do‘st, maslahatgo‘y, hamfikr edi.

Bint ash-Shoti she'rlarini o‘rganish jarayonida, ularning o‘ziga xos uslubga ega ekanligini, shu bois uning taffakkur tarzi, ko‘ngil olami ruhiyati ifodasi asarlariga o‘ziga xos joziba va ta'sirchanlik bag‘ishlaganligini ko‘ramiz.

"Bir yildan so‘ng" deb nomlanuvchi shoiraning she'ri quyidagi misralar bilan boshlanadi:

مضى عام و مازلت هنا
انقل الخطو
على الجسر اليك ...

Yil o‘tdi bu yerda toyib yiqilmadim
Men sen tomon ko‘prik ustida
Qadam tashlamoqdaman
(On the Bridge...,2003, p. 158)

Bu misralarda biz Bint ash-Shoti qalbidagi og‘riqli dard uni iztirobga solayotganini ya'ni umr yo‘ldoshi vafotiga bir yil bo‘lsa-da, kuch topib ko‘prik ustida u tomon borayotganini ko‘rishimiz mumkin.

خانني الظن ...

لم ارحل اليك

مزقت ايدى المنايا شملنا

واراني دائما

بين يديكّ !

Hayollarim aldadi meni
Men sen tomon borolmayman
Bizni o‘rab olgan qismat qo‘llarini
Parchaladim
O‘zimni doimo
Sening yoningda ko‘ryapman
(On the Bridge...,2003, p. 158)

Mazkur she'riy parchada shoira umr yo‘ldoshi bilan ko‘rishish uchun qismat qo‘llarini parchalaganini, uchrashuv vaqti yaqinlashayotganini va albatta o‘zini yori Amin al-Xuliy yonida bo‘lishi kerakligini yozadi.

Shoira o‘z she'ri davomida u yorining yodi bilan yashayotgani, doimo unga intilayotgani, ammo bu harakatlari zoe ketayotganini yozarkan, ortidan bu qiyinchiliklar, axir bir kun tugashini va o‘sha kunda uchrashuv joyi "jannat" bo‘lishini istaydi:

Sening sharpang undamoqda
Meni tashlashga qadam
Lekin sen uzoqda bo‘lsang ham
Sirli ovozlar yolg‘izligimda
Olmoqda o‘z himoyasiga
To‘siqlar olinar, qiyinchiliklar tugar
Bir kun keladi, uchrashamiz, albatta,
Sen bilan jannatda...
(On the Bridge...,2003, p. 159)

She'rning keyingi misralarida shoira hayotining mazmuni bo‘lgan umr yo‘ldoshini doimo dilida saqlash, uning butun vujudi uning yodi bilan band ekanligini eslatadi

Sening yoding nelarni ko‘zlar
Yo‘q bo‘lmadi qaro kunlarim
Tilimdagi bu barcha so‘zlar
Faqat sen haqingda,
Va seni bo‘zlar...
(On the Bridge...,2003, p. 160)

Bint ash-Shotining shu kitobdan o‘rin olgan "Xotira so‘zlari" nomli qasidasi ham Amin al-Xumiyni eslab yozilgandir. Unda shoira o‘tayotgan xasratli kunlari, xato atchiq ham shirini ham barobar bo‘lib qolgani, go‘yo she'rlari orqali qadrdoni, suyuklisi bilan dardlashayotgandek...

ما علينا ...

اشرب الكاس ولاتبق ثماله

ماعلينا،

يستوى حلو و مر

Bizga nima bo‘ldi...

Sipqorayapman sharobni

Qolmayapti biror tomchisi

Bizga nima bo‘ldi?

Barobardir shirin va achchiq

(On the Bridge...,2003, p. 164)

Shoira o‘z-o‘ziga savol berib, go‘yoki xayron...Kunlar o‘tib, biror soniyasi ham to‘xtab qolmayapti... ahir hayotimda "achchiq va shirin....", "tong va tun ham" "inkor va sabr" ham barobar bo‘lib qoldi-ku deya umr yo‘ldoshi vafotidan so‘ng, xursandchiligi tugab, barcha narsa shoira uchun bir xil tuyilayotgandek...

"Bir yildan so‘ng" nomli qasidasida:

Bir yil o‘tsa-da

Hamon qadam tashlamoqdaman

Sen tomon

Ko‘prik ustida, - deya hayot va mamot o‘rtasida isyoniy hislarini ayon qilmoqda.

قد كان دهرا من عذاب

ولئن خلناه كالحلم الرحيب

قد صار كالقفر اليباب

لم يبق فيها من شقاب

Yilimiz asrdek ketdi uzayib,

Orzular azobini kamaytirmadi

Kon’glim bo’m-bo’sh sahro kabidir

Unda sening yodingdan bo’lak

Hech narsa qolmadi

(On the Bridge...,2003, p. 159)

Yuqorida she’riy parchada shoira yilni asrdek uzayib ketganini, ko’ngli huddi sahro kabi bo‘m-bo‘sh, unda faqat yorining yodi qolganini ta'kidlamoqda.

She'rning keyingi misralarida shoira hayotining mazmuni bo‘lgan umr yo‘ldoshini doimo dilida saqlashi, uning butun vujudi uning yodi bilan band ekanligini eslatadi.

Sening yoding nelarni ko‘zlar
Yo‘q bo‘lmadi qaro kunlarim
Tilimdagi bu barcha so‘zlar
Faqat sen haqingda,
Va seni bo‘zlar...
(On the Bridge...,2003, p. 160)

Bint ash-Shotining shu kitobdan o‘rin olgan “Xotira so‘zlari” nomli qasidasi ham Amin al-Xumiyni eslab yozilgandir. Unda shoira o‘tayotgan xasratli kunlari, xatto achchiq ham shirin ham barobar bo‘lib qolgani, go‘yo she'rlari orqali qadrdoni, suyuklisi bilan dardshayotgandek...

ما علينا ...
اشرب الكاس و لا تبق ثماله
ما علينا،
يستوى حلو و مر

Bizga nima bo‘ldi...
Sipqorayapman sharobni
Qolmayapti biror tomchisi
Bizga nima bo‘ldi?
Barobardir shirii va achchiq
(On the Bridge...,2003, p. 164)

Shoira o‘z-o‘ziga savol berib, go‘yoki xayron... kunlar o‘tib, biror soniyasi ham to‘xtab qolmayapti...axir hayotimda “achchiq va shirin...”, “tong ham tun ham”, “inkor va sabr” ham barobar bo‘lib qoldi-ku-deya umr yo‘ldoshi vafotidan so‘ng, xursandchiligi tugab, barcha narsa shoira uchun bir xil tuyilayotgandek...

Bir yildan so‘ng nomli qasidasida:

Bir yil o‘tsada
Hamon qadam tashlamoqdaman
Sen tomon
Ko‘prik ustida,

- deya hayot va mamot o‘rtasida isyoniy hislarini ayon qilmoqda.

Bint ash-Shoti o‘z she'rlari badiiy tasvir vositalaridan keng foydalangan. Ayniqsa ramzlardan keng foydalangan. “Bir yildan so‘ng” she'rida “ko‘prik” ramzidan foydalangan. Ko‘prik – bu hayot yo‘lidir. Sakinat maskani va ramzi – bu “jannatdir”.

“Xotira so‘zlari” she'rida hayot obrazini berish uchun “qadah” ramzidan foydalagan.

Simiryapmiz qadahni xatto

Tomchisiga qolmadi o'rin

Ne bo'ldi bizlarga, azizim!

Barobardir achchiq ham shirin.

(On the Bridge...,2003, p. 158)

Shoira she'rlarida tashbih san'atidan ham unumli foydalangan. O'tayotgan maxzun kunlarini asrga qiyoslaydi. "Bo'm – bo'sh ko'nglini "sahro"ga o'xshatadi. "Beg'ubor orzularini "loyqa suv"ga qiyos etadi.

Taqdirlar ayblanar

Loyqa suvga aylanar orzular,

Tuproqqa ko'milar jasad misoli

Ayblashdan ne naf endi?

Foyda ham, zarar ham,

Raddiya – sabr ham baribir menga...

(On the Bridge...,2003, p. 158)

Shoira yana tazod, mubolag'a kabi san'atlardan va qator "kema", "bandargox", "dengiz", "elkan", "eshkak" kabi so'zlarini ishlatib, tanasub san'atidan ham foydalangan.

Shoira she'rlarini yozishda qofiyasiz oq she'r ko'rinishidan foydalangan.

Bint ash-Shoti XX asr Misr adabiyotining eng ko'zga ko'ringan olima, adiba va shoirasi sifatida e'tirof etilgan. U o'z ijodiy faoliyatini XX asr 50-yillarida boshlagan. U o'z asarlarida o'ziga zamondosh bo'lgan ayollar, ularning orzu-istaklari, qishloqdagi ayollarning ayanchli ahvoli haqida yozgan. Shu bilan bir juda ko'p manba'larga tayangan xolda, Saodat asri ayollari-Payg'ambarimiz Muhammad (sav)ning onalari, qizlari, ayollari, nabiralari, ularning barcha muslima ayollarga namuna bo'lib umr go'zaronlik qilganlari haqidagi asarlari ha mavjuddir.

O'rta asr buyuk mutafakkiri Abu-l-Ala al-Ma'arriy asarlari bo'yicha qilgan ilmiy tadqiqotlari mavjud. Adibaning "Ko'prik ustida" to'plamidan joy olgan she'rlari taxlilga tortiladi. Ular shoiraning turmush o'rtog'i Amin al-Xumiy vafotidan keyin mhzun kunlarida yozilgandir. Ularning bosh mavzusi vafo, muhabbat, ayriliq, qahramoni esa shoirning o'zidir.

Tahlilga tortilgan "Bir yildan so'ng", "Xotira so'zlari", "Avvaliga qaytish" kabi she'rlarida yoriga bo'lgan samimiy muhabbat yotadi. Uning she'rlari shaklini oq she'r desak ham bo'ladi. Chunki ular ma'lum bir qofiyaga ega emas.

Bint ash-Shoti o'z she'larini yozishda ko'proq ramzlardan foydalangan.

Ko'ngil uyini "bo'm-bo'sh sahroga, beg'ubor orzularini "loyqa suvga" o'xshatgan. Bundan tashqari "Tong ham tun ham barobar", "Achchiq ham, shirin ham", bir xil "Quruqlik ham suvlik

ham barobar” kabi misralarni she'rlariga olib kirib tazod san'atini, shu bilan birga tashbeh-u istioralar, mabolag‘a-yu jonlantirishlarni kashf etgan.

O‘zbek xalqining sevimli shoirasi Zulfiya Isroilova 1915 yili Toshkentda hunarmand oilasida tug‘ilgan. 1931-34iyillarda shoira xotin-qizlar bilim yurtida o‘qib, u yerdagi adabiy to‘garaklariga qatnashib she'rlar mashq qila boshladi. 1932-yili ilk she'rlar to‘plami “Hayot varaqlari” nashrdan chiqdi.

Shundan keyin “Qizlar qo‘shig‘i”, “She'rlar” kabi qator asarlari chop etila boshladi. Ularda ona-Vatan, unda mehnat qilayotgan pahtakor, traktochi qizlar hayoti aks ettirilgan.

Zul'fiya 1938-1946 yillarida bolalar nashriyotida muxarrir, 1950-1953 yillarda esa “O‘zbekiston xotin-qizlari” oynomasida bo‘lim boshlig‘i va nihoyat 1953-1980 yillarda “Saodat” oynomasining bosh muxarriri bo‘lib ishladi.

Ulug‘ Vatan urushi davrida yozilgan she'rlari, nashr bo‘lgan asarlari mazmvn mohiyatida Vatanga muhabbat, dushmanga nafrat, g‘alabaga ishonch ruhi barq urib turardi.

Hamid Olimjonning bevaqt vafotidan keyin (1944) yozilgan, ruhiy silsilalar, qalb iztiroblari bilan to‘la she'rlar shoir ijodida o‘z aksini topdi. Zulfiya shaxsiy fojeasi tasviri orqali II jahon urushidan katta talofotlar va yo‘qotishlar bilan chiqqan xalqning dard va alamlarning ifodaladi. Uning “Hijron” , “Hijron kunlarida”, “Bahor keldi seni so‘roqlab”, “Sen qaydasan, yuragim”, “Sog‘insangda”, “Yana bugun bahorga zorman”, “Sog‘inib”, “Sensiz”, “Xotira satrlari” kabi ko‘plab she'rlari H. Olimjonga bo‘lgan mangu muhabbatning nurli in'ikosi sifatida jaranglaydi.

Bint ash-Shotining “Ko‘prik ustida” nomli kitobining oxirida qator she'rlari keltirilgan. Ular faqat turmush o‘rtog‘i Amin al-Xuliy vafoti munosabati bilan yozilgandir. Shuning uchun ham shoira Zulfiyaning faqat Hamid Olimjonning fojeali vafotidan keyin unga atab yozilgan she'rlarni qiyosiy tihlil qilishga jazm etdik.

Shoiraning “Kechir qoldim g‘aflatda” nomli she'ri H.Olimjon vafoti dastlabki davrida yozilgan. Chunki uni o‘qigan inson ko‘zi oldiga o‘sha fojeali kun, fojeali soat, fojeali soniyalar keladi.

Seni birdan jonsiz ko‘rdim,
Jonim chiqdi mening-da
Es xushimdan ajrab turdim
Tuyg‘um ketdi sening-la
Koshki edi men boshingda
Turgan bo‘lsam o‘sha dam
Kirmasmidim men qoninga
Bermasmidim jonim ham.
(Do Your Tears Have Stars., 1985, p. 36).

Shoira Zulfiyaning “Bahor keldi seni so‘roqlab” she'rida bahor H. Olimjonning bahordan darak beruvchi har bir narsadan qishdan, bog‘lardan, qirg‘oqlardan, soylardan, tog‘lardan, qirlardan so‘roqlab, axir topaolmay shoiraga murojaat qilmoqda:

Qani o‘sha kuychi, xayolchan yigit?
Nechun ko‘zingda yosh, turib qolding lol
Nechun qora libos, sochlaringda oq,
Nechun bu ko‘klamda sen prianshonhol!?
(Do Your Tears Have Stars., 1985, p. 29).

Bahor shoirani parishonxol, qora libosda ko‘rib, endi dov-daraxtlar, gul-u-rayxonlarni uyg‘otib, atrofga ular atrini taratganidan samoda bir qo‘shiq yangragani – bu shoir she'rlariga bastalangan qo‘shiq ekan – bu esa shoiraga kuch bag‘ishlaganing quyidagi masralarda o‘qiymiz:

O‘lmagan ekansan, jonim, sen hayot,
Men ham hali sensiz olmadim nafas.
Hijronning qilbimda, sozing qo‘limda,
Hayotni kuylayman, chekinar alam,
Tunlar tushimdasan, kunduz yodimda,
Men hayot ekanman, hayotsan sen ham!
(Do Your Tears Have Stars., 1985, p. 29).

Bizga ma'lumki Zulfiya bilan Hamid Olimjon sevib, sevilib turmush qurishgan. Bir-birlarini ayab, ardoqlab yashashgan. Shodlik va baxt kuychisi bo‘lgan Hamid Olimjon ona - Vatanga, uning go‘zal tabiatiga albatta.

Zulfiyaxonimdek yoriga atab kator asarlar yaratgan shulardan biri. Uning fojeali vafotidan so‘ng shoir sevgan xam bir narsa shoiraga uni eslatib turdi. Shoiraning mashxur "Urik gullagan" she'rini eslab shoira kuyidagilarni yozgan:

" Derazamning oldida bir tup,
Urik oppok bulib gulladi...
Gulni kurib ishkparast kalbim,
"Ming aytilgan darddan kuyladi
(Do Your Tears Have Stars., 1985, p. 40).

She'r davomida shoira shoirni kumsab, birga utkazgan baxtli kunlarini eslab, bir-birlarining yangi yozilgan she'rlarini o‘qib, zavq-shavqqa to‘lganlari shoiraga keyinchalik xam ilxom baxsh etgani, u damlarni xech xam unutib bulmasligini o‘z she'rlarida tarannum etgan.

Shulardan biri:
Kiyintirsam seni bahorga,
Yulduzlarni o‘rasam qorga, olib kelib oldinga qo‘ysam

Ham yulduzni, ham seni suysam:
To tonggacha so'ylasam ertak
Chechak terib etak va etak
Oyog'ingga keltirib to'ksam,
Seni maqtab, ag'yorni so'ksam, -
Shunda sening ko'ngling tulurmi?
Aytganlaring bajo bo'lurmi?
(Do Your Tears Have Stars., 1985, p. 40).

deb X. Olimjon tongda yozgan mazkur she'rni Zulfiyaxonim yostig'i tagiga qo'yib ketgan ekan.

Qancha bo'ldi ko'rmaganimga
Ey kalbimning dilbari, shoir
Qancha bo'ldi birga o'ltirib,
So'zlashmadik dillarga doir
Ikkimizga ma'lum bir qudrat
Yillar o'tsa senga tortadi.
Unutmayin deyman-u, fakat
Dilda uning o'ti ortadi
(Do Your Tears Have Stars., 1985, p. 45).

Shoiraning "Sog'inib", "Sensiz", "Xotira satrlari", "Yana bugun bahorga zorman" kabi she'rlarida xam shoirni sog'inib, u siz utgan armonli kunlarini eslab, bahor faslida yori bilan birga o'tkazgan damlarini qumsaydi. Biroq shoira o'zining "Men o'tgan umrga" nomli she'rida, keyinga o'zini tutib olib, endi men ikki kishi uchun yashashim va qalam tebratishim lozim deb ahd qiladi va uni amalga oshiradi. U X.Olimdjon asarlarini nashr ettirib, "Semurg", "Zaynab va Omon" dostonlari asosida p'esa va opera librettalar xam yaratadi. Qator she'riy majmualari uchun Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofotiga sazovor bo'ladi. Hind mavzusidagi she'rlari uchun Javoxarlal Neru nomidagi umum Hindiston sovrini, Osiyo va Afrika yozuvchilar harakatidagi faol ishtiroki uchun Halkaro "Nilufar" mukofotlariga sazovor bo'lgan. Uning she'rlari rus, ingliz, hind, arab, balgar, nemis, hitoy, fors va boshka tillarga tarjima qilingan. Shoira juda ko'p shoirlarning asarlarini o'zbek tiliga o'girgan.

Hozirgi kunda Zulfiyaning vatan tinchligi va jamoatchilik oldidagi hizmatlarini inobatga olib "Zulfiya" nomidagi Davlat mukofoti ta'sis etilgan.

Hayot kitobini bexos varaqlab

Men o'tgan umrga achinmay qo'ydim
Tabassum o'rnida kuldim charoqlab,
Suyish kerak bo'lsa - telbacha suydim,
Men o'tgan umrga achinmay qo'ydim,
Hech kimla ko'rmayin umrimga o'xshash
Suydim,
Erkalandim,
Ayrildim
Kuydim
Izzat nima bildim
Shu – da, bir yashash!...
(Do Your Tears Have Stars., 1985, p. 129).

1958 yilning 7-13 oktyabrida Toshkentda Osiyo va Afrika yozuvchilari konferensiyasi bo'lib o'tdi unga nafaqat Toshkent shahri, balki Butun Uzbekiston Respublikasi Osiyo va Afrika yozuvchilarini kutib olishga muntazir edi. O'zbek yozuvchilari Osiyo va Afrika yozuvchilarining asarlarini rus va o'zbek tillariga o'girib nashr ettirdilar Xossatan arab yozuvchisi Jirji Zaydonning "Farg'ona kelini", Abdurahmon ash-Sharqoviyning "Ona yer" romanlari o'zbek tilida nashrdan chiqdi. Mazkur konferensiyaga Misrdan qator adiblar bilan Oysha Abduraxmon (Bint ash-Shoti) ham qatnashgan. Zulfiyaxonim mezbon bo'lib ularni kutib olgan. Keyinchalik mazkur konferensiya Misrda xam bo'lib o'tgan. Zulfiyaxonim va Oysha Abduraxmonlar Misrda xam uchrashishgan.

Osiyo va Afrika yozuvchilari uyushmasining VII konferesiyasi yana Toshkentda 1983 yil 27 sentyabrda muxtasham A. Navoiy nomli teatrda ochildi. Mazkur konferensiyaga Misrdan Oysha Abduraxmon (Bint ash-Shoti) mehmon bo'lib kelgan. Zulfiyaxonim bilan Oysha Abduraxmon mazkur konferensiyalar oraqali tanishishgan. Chunki Osiyo va Afrika qit'alarining juda ko'p mamlakatlari yozuvchi, shoirlari qatnashib, butun xalqlarni birdamlikka, tinchlikka va xalqlar o'rtasida tinchlikni mustahkamlashga da'vat etganlar.

Bu konferensiya o'zbek shoir va yozuvchilari uchun katta ahamiyatga molik voqea edi. Ularni boshqa mamlakatlar yozuvchilari bilan yuzma-yuz muloqot qilishi, ular bila fikr almashish imkoniyatini yaratdi. Shu bilan birga adabiy aloqalarni kengroq, rivojlantirishga turtki bo'ldi.

Mazkur konferensiyalarda faol ishtiroki uchun o'zbek xalqining ardoqli shoirasi Zulfiyaxonimga “Nilufar” mukofoti berildi. Misr adibasi Bint ash-Shoti O'rta osiyodan yetishib chiqqan buyuk olimlar Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Maxmud Zamahshariy, muhaddislar Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziylar haqida risola yozdi.

O‘zbek shoirasi Zulfiyaxonim va Misrlik Bint ash-Shotilar o‘z xalqlaririning, mamlakatlarining mashhur insonlari bo‘lishgan. Shu bilan birga xalqaro miqiyosida ham katta obro‘ga ega bo‘lishgan.

Oysha Abduraxmon (Bint ash-Shoti) “XX asr mashhur ayoli” nomini olgan.

Zulfiyaxonim asarlari juda ko‘p tillarga tarjima qilingan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Aisha Abd al-Rahman [Bint al-Shati'] on the Bridge Between Life and Death. Ala-l-jisr bayna-l-hayat va-l-mayt. Egyptian General Book Authority Press, 2003. (in Arabic)
2. Zulfiya. Do Your Tears Have Stars. Poems. Ko‘z yoshlaringda bormi, yulduzing. G. Ghulam Publishing House of Literature and Art. Tashkent, 1985. (in Uzbek)
3. Zulfiya. My Melodies to You. Kuylarim sizga. Collection. (in Uzbek)
4. Saidova N.M. Features of the development of the Saudi realistic story in the second half of the twentieth century. Osobennosti razvitiya saudovskogo realisticheskogo rasskaza vo vtoroy polovine XX veka. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. Germany, 2021. - 365p
5. Woman and Time. Ayol va zamon. Republican Conference Collection. Tashkent State University of Oriental Studies. Tashkent, 2016. (in Uzbek)
6. Khojaeva, T.A. From the History of Literary Relations Between Uzbekistan and India. O‘zbekiston va Hindiston adabiy aloqalari tarixidan. Tashkent, 2011. Pages: 81-86. (in Uzbek)
7. Kayumov, A.P. Zulfiya. Zulfiya. Tashkent. G. Ghulam Publishing House of Literature and Art. Tashkent, 1975. (in Uzbek).